

## INKLYUZIV YONDASHUV SIYOSATI

### ***Maktab maqsadi***

Invento Ozbek Xalqaro maktabi har bir bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish bilan bir qatorda o'zining noyobligi va intilishlarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlaydi. Invento ta'limi o`quvchilarning yaqin muhitini chuqurroq va mazmunli tushuntirish orqali sog'lom munosabatlarni qurish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O`quvchi - diqqat markazi hisobblangan, puxta tashkil etilgan ko'p tilli dastur orqali, ular global fikr qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari maqsadida, biz ularda mustahkam bilim bazasini, doimiy ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish istagini shakllantirishga xizmat qilamiz.

### ***Asos***

Shaxslar ko'p qobiliyatli bo'lib, turli fikrlash va tushunish usullarining to'liq spektriga ega. Invento O'zbek xalqaro maktabi ta'lim olishning ko'plab usullari mavjudligini tan oladi va har bir o'quvchiga shaxs sifatida va o'quvchi sifatida individual tarzda o'sish imkoniyatini beradi. Ushbu siyosatning maqsadi Inventoning har bir o`quvchisi uchun ta'lim olish teng huquqli bo'lishini ta'minlashdir. Maktabning fikricha, har bir o'quvchining alohida kuch va moyilliklarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash, maktab barcha a'zolarining kollektiv mas'uliyatidir. Buning uchun maktab qobiliyat, irq, din va tilidan qat'i nazar ta'limga turli yondashuvni ta'minlashga harakat qiladi. Shuni ta'kidlab otish joizki, o`quvchilarning turli xil qobiliyatlarini hisobga olgan holda, har bir o`quvchining o'ziga xos qobiliyatları, iste'dodlari va shaxsiy fazilatlarini qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyatlarimiz doirasida vaqt va mablag' sarflaymiz. O`quvchilarning vaqtinchalik yoki doimiy maxsus bilimga bo'lgan talablarini e'tiborga olgan holda, ushbu talablarni qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyatlar yaratib berishga harakat qilamiz.

### ***Invento O'zbek xalqaro maktabida biz :***

- Keng ko'lamli iste'dod, qobiliyat va yutuqlarni qadrlash va o'quvchilarimizning o'zlarini qadrligi his etishlarini ta'minlaymiz
- Individuallashgan yuqori umidlar iqlimini yaratamiz
- Muvaffaqiyatlarini va o'ziga bo'lgan ishonchini rag'batlaniramiz
- Kadrlar tayyorlash va muassasamiz imkoniyatlari doirasida o`quvchilarning individual ehtiyojlariga mos bo'lgan yuqori sifatli ta'limga yetkazib beramiz
- O`quvchilarning yuqori darajada ta'limga olishlari, ular uchun ba'zi qiyinchilik tug`dirayotgan to'siqlarni olib tashlash uchun barcha jamoa a'zolari bilan hamkorlikni amalga oshiramiz
- Farzandining ta'limga olishini qo'llab-quvvatlashda ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishlaymiz.

(Yuqoridagi bo'limdagi materiallar IB dasturi tomonidan taqdim etilgan va moslashtirilgan Inclusive Education: Maktabni to'liq rivojlantirish uchun manbaa, 2018-yilda chop etilgan.)

## **Atamalar**

**Inklyuziv yondashuv:** Oquvchilar uchun to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish orqali ta'limga kirish va o`quvchilarni ta`lim jarayoniga yanada samarali jalb qilishni amalga oshiradigan jarayon.

**Maxsus o'quv ehtiyojlari:** Muayyan sog'liq yoki xulq-atvor ehtiyojlari tufayli boshqalardan farq qilib rivojlanayotgan o`quvchilarga zarur bo'lgan, ta`lim olishi uchun alohida sharoitlar.

**Differensiatsiya:** Alohida o`quvchilarning ta`lim olish samaradorligini oshirish, ularni rivojlantirish, shaxsiy o'quv natijalariga erishishga intilishini kuchaytirish uchun eng samarali strategiyalarni belgilash jarayoni. Sinf ichida differensiatsiya, mazmun, jarayon, mahsulot yoki o'quv muhiti orqali amalga oshiriladi.

**Mazmuni:** har bir o'quvchining o'zlarining proksimal rivojlanishning alohida zonasida bilim, tushuncha va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlash.

**Jarayon:** har bir o'quvchini ishtirok etishga va bilim, tushuncha va ko'nikmalar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishga xizmat qiladigan mashg'ulotlar va strategiyalarni tashkil etish.

**Mahsulot:** o`quvchilar tomonidan yaratilgan ishlar (mahsulotlar) ularning bilim, tushuncha va ko'nikmalarga ega bo'lganligini tasdiqlashi lozim.

**Qabul qilish:** o'quv ehtiyojlari ko'ra har bir o`quvchi uchun sharoitlar iloji boricha adolatli bo'lishini ta'minlash uchun oqilona o`zgartirishlar va qo'shimchalar kirish tartibidan foydalanish. Bu o'quv jarayonining istalgan bosqichida yetarli darajada aks ettirilishi mumkin (Yuqoridagi bo'limdagi materiallar IB dasturi tomonidan e'lon qilingan "Ta`lim jarayoning xilma-xilligi va IB dasturlariga qo'shilish" 2018-dan ishlab chiqligan va moslashtirilgan.)

**Ta`lim jarayonini qo'llab- quvvatlash guruhi:** Ta`lim jarayonini qo'llab-quvvatlash guruhlari direktor, o'qituvchilar, logoped va bolalar psixologidan iborat; boshlang'ich va umumiyl o'rta ta`lim maktabi uchun bitta ta`limni qo'llab-quvvatlash o'qituvchisi mavjud. Maktab jamoasi ta`lim olishda yordamga muhtoj o`quvchilarni ko'rib chiqish uchun muntazam ravishda yig'iladi, aksariyat hollarda sinf rahbarilarining iltimosiga ko'ra.

# TIZIMLI JARAYON

## ***Qabul***

Invento turli xil o'quv ehtiyojlariiga ega bo'lgan o`quvchilarni qabul qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Bizning resurslarimizdan kelib chiqib , qulayliklar va kadrlar tayyorlash bo'yicha sharoit yaratib berishga harakat qilamiz. Maktab har bir bolani unga kerakli bo`lgan ehtiyoj darajalari doirasida maktab dasturiga kirishi uchun ro'yxatga kiritilgandan so'ng 15 kun ichida o'rganib chiqadi.Yuqori darajadagi maxsus ehtiyojlarga muhtoj holatlardan tashqari, qo'llab-quvvatlanishga muhtoj bolalarga yordam berish uchun maktabda ta'limni qo'llab-quvvatlash jamoasi faoliyat yuritadi. Maktabga ta`lim olishda qo'shimcha yordamga muhtoj bolalar qabul qilinsa va maktabdagi mavjud resurslar bilan shunday imkoniyatni taqdim etish mumkin bo'lмаган holatlarda, maktabda ta`lim olish sharoitlari ota-onalar, Maktab direktori va PYP koordinator bilan kelishiladi. Ota-onalar farzandining ta`lim olishi uchun bolaning alohida ehtiyojlariiga oid, shu jumladan, bolaning oldingi ta`lim mussasasida maxsus kurslarni o'taganligi yoki ixtisoslashtirilgan ta`lim olganligi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni oldindan taqdim etishga mas'uldir. To'g'ri ma'lumotlarni yashirish ta`lim olish uchun taklif etilgan shartnomani bekor qilishga olib kelishi mumkin, bu esa bolaning maktabdan chetlatilishiga olib keladi yoki o'quvchini maktab dasturiga muvofiqlashtirish uchun ota-onadan tashkilotni maxsus qo'llab-quvvatlash (mehnat va moddiy resurslar) maqsadida qo'shimcha to'lovlarni amalga oshirishi talab qilinadi. Ushbu dastlabki jarayonning tasdiqlanishi ota-onalar bilan elektron pochta orqali muloqoti hisoblanadi.

## ***Identifikatsiya va baholash***

Ta'lim olishda alohida ehtiyojga ega bolalarning ota-onalari o'qituvchi, bolalar psixologi yoki maktab direktoriga murojaat qilishi mumkin. Bolaning ehtiyojlarini aniqlash maqsadida dars davomida o'z kuzatuvlaridan kelib chiqib, o'qituvchi ham o'z navbatida maktab psixolog/alohipha qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassisiga murojaat qilishi mumkin. Agar sinf o'quvchisining alohida ehtiyojlar bo'yicha rasmiy xulosa zarur bo'lsa, o'qituvchi maktab psixologiga/alohipha qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassisiga murojaat qilishi mumkin, shundan so'ng mutaxassislar jamoasi murojaatni ko'rib chiqib, keyingi harakatlar rejasini ishlab chiqadi. Alohipha qo'llab-quvvatlaydigan mutaxassislar guruhi qo'shimcha qo'llab-quvvatlash zarurligini aniqlash uchun darslarni kuzatgandan keyin uchrashadilar. Jarayonning barcha bosqichlari protokol qilinadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Agar o'quv ehtiyoji sinf kuzatuvlari asosida Maxsus ta'lim ehtiyojlar (SEN) bilan bog'liq bo'lib ko'rinsa, turli kognitiv, xulq-atvor tahlillarini o'z ichiga olgan qo'shimcha ta'minotlar talab qilinishi mumkin. Baholash natijalari ota-onalarga taqdim etiladi va alohida ta'lim rejasini (IEP) barcha tegishli maktab a'zolari bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Ota-onalar ushbu jarayon haqida elektron pochta orqali ma'lumot olishadi.

Ma'lumot bilan bo`lishish uchun ota-onalar bilan uchrashuvlar bo'lib o'tadi. Ba'zi hollarda, individual o'quv qo'llab-quvvatlash guruhi o'quvchining mavjud darajadagi qo'llab-quvvatlash orqali bolaga maktab dasturiga kirishiga imkon bermaydigan o'quv ehtiyoji borligini aniqlashi mumkin. Ushbu holatlarda ota-onalardan quyidagilar so'ralishi mumkin:

- *Bolani qo'shimcha kasbiy diagnostikadan o'tkazish*
- *Bolani maktabdan olib ketish*
- *Qo'shimcha qo'llab-quvvatlash manbalari yoki kadrlar uchun pullik to'lovni amalga oshirish.*

## **Rejalashtirish va o'qitish**

Agar ta`lim uchun alohida ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlash maktab tomonidan amalga oshirilsa, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularni o'quv dasturiga maksimal darajada jalg etish uchun ta`lim strategiyalarini saralab olish va qo'llash ta'minlanadi. Bu tadbirlar maxsus vazifalarni ishlab chiqish, vazifalarni ajratish yoki vazifalarni bajarish uchun alohida sharoitlar yaratishni talab etishi mumkin. O'qituvchilarning samarali hamkorlikda ishlashi shunday sharoit va tadbirlarni yaratish imkonini beradi, buning natijasida bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va ta`lim jarayoni ta'minlanadi. IB bo'yicha ta`lim olishning barcha sohalarida inklyuzivlik – bu o'quvchilarning ta`lim olishga bo'lgan to'siqlarini bartaraf etish orqali barcha o'quvchilarning ta`lim olish imkoniyatini kengaytirish va ta'limga jalg etishga qaratilgan joriy jarayondir. IB dasturlarida o'quvchining kuchli tomonlari qayd etiladi, vazifalar Ta'lim olish va O'qitishga bo'lgan yondashuvlardan kelib chiqib qo'yiladi.

Differentsiatsiya jarayoni bo'yicha yozma hujjatlar Toddle platformasining Bo'limni O'rganish Dasturida yozib boriladi.

Vazifasiga inklyuziv muhitni tashkil etish kiritilgan o'qituvchilar tarkibi ta'limni qo'llab-quvvatlovchi O'qituvchi va mакtab psixologи ko'magida o'z professional ko'nikmalarini rivojlantiradi.

## **Baholash va hisobot**

Ta'lim olish uchun alohida ehtiyojlarga muhtoj o'quvchilarni baholash va hisobot jarayoni sinfdagi o'qituvchi/o'qituvchilar hamda Ta'limni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus guruh tomonidan o'tkaziladi. Ayrim o'quvchilarning alohida ehtiyojlari, agar inklyuziv muhitda qo'llaniladigan baholash usullaridan foydalanimasa, ularning qobiliyatları darajasining namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday usullar o'quvchilarga maksimal adolatlilik baholash sharoitida o'z qobiliyatini namoyon qilish imkonini beradi. Odatta, bu o'quvchilarning uzoq muddatli yoki doimiy ta'limga jalg etilishiga xizmat qiladi va tegishli hujjatlarda qayd etiladi. Har semestr davomida o'qituvchilar har bir o'quvchining o'quv dasturi va baholash mezonlari bo'yicha erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi talim natijalari bo'yicha hisobot tayyorlaydilar.

Ta'limni qo'llab-quvvatlash o'qituvchisi har semestrda muayyan ehtiyojlarga ega o'quvchilarning ta'lim natijalarini baholash bo'yicha qo'shimcha hisobotni taqdim etadi.

## **Maxfiylik va muloqot**

Invento O'zbek Xalqaro maktabi jarayon doirasida aniq va izchil muloqotni tushunadi va qadrlaydi. O'quvchilar huquqlarini himoya qilish uchun ,barcha xodimlarimiz maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun qat'iy professional odob-axloq kodeksiga amal qiladilar. Biz barcha o'quvchilarimizning ehtiyojlariga yaxshiroq xizmat qilish uchun, kerakli yondashish va tushunchalar izlash maqsadida ikki tomonlama hamkorlik sifatida ota-onalar bilan yaqindan ishlashga tayyormiz. Biz farzandining ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishda ota-onaning rolini juda muhim deb hisoblaymiz.

**Mas'ul:** SLT (Caroline Fogiel, Ranjana Manuel, Andrea Lilieth Usher, Rebecca Painter)

Sana: Hujjat 2021-yilning mart oyida ishlab chiqilgan,  
2021-yilning avgust hamda 2022-yilning avgust oyida qayta ko'rib chiqilgan

**Ko'rib chiqish sanasi:**  
**2023-yilning avgust oyи**

